



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING INTERFAOL METODLARI.

Abdusattorova Dilnuraxon Shorustam qizi

Oltiariq tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10032391>

Annotatsiya. Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktabda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. Maqolada matematika o'qitishning interfaol metodlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Tanlama, tutash, pedagogik tadqiqot, kuzatish, Ilmiy-tadqiqot, malaka, ko'nikma, masala, L.V.Zankov, analogiya, induksiya, deduksiya, amaliy metod, klassifikatsiya, O'quv-biluv faoliyati, metodika, didaktika.

Abstract. In our country, teaching mathematics in primary grades is generally considered as the first stage of mastering the school mathematics course. Therefore, when working in primary classes, it is necessary to take into account the general issues involved in teaching mathematics in secondary school and correctly assess the importance of primary education in solving these issues. The article talks about interactive methods of teaching mathematics.

Key words. Selection, connection, pedagogical research, observation, Scientific research, qualification, skill, problem, L.V. Zankov, analogy, induction, deduction, practical method, classification, Educational activity, methodology, didactics.

Matematika o'qitish maktabda boshqa fanlarni o'qitish singari o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi o'z maqsadiga ega. Dast avval o'quvchilar dasturda ko'zda tutilgan nazariy bilimlar, malakalar, sistemasini egallashi kerak. Matematika o'qitish bilimlarni ongli, yetarlicha yuqori darajada egallashni ta'minlash kerak.

O'rta maktab matematika dasturiga taaluqli ko'pgina masalalar boshlang'ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o'zlashtirilishi kerakki, bunda ular o'quvchilar ongida butun umr saqlanib qolsin, boshqa masalalar esa o'qitishning dastlabki bosqichida keyingi sinflarda mufassal qarab chiqishga tayyorgarlik ko'rish maqsadidagina kiritiladi yoki biror malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida fikrlash qobiliyati darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun kiritiladi.





Maktabning boshlang'ich sinflarida bolalar matematika sohasida dasturda nazarda tutilgan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning ma'lum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari haqida gap borganda yuqorida aytib o'tilgan mulohazalarni hisobga olish kerak.

Boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o'quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash (ko'pincha avtomatizmga etkazilgan) malakalarini shakllantirish edi va shunday bo'lib qoladi.

Matematika kursi o'quvchilar kuchi etadigan darajada o'quv materialini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik dalillar asosida yotuvchi umumiy tamoyil va qonuniyatlarni tushunishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushunishni nazarda tutadi.


Bu asosan, amallarning xossalarini, ular orasidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga, bolalarda shakllanayotgan amaliy o'quv va ko'nimkalarining asosi bo'lgan matematik munosabatlar va bog'lanishlarga taaluqlidir. Nazariya amaliy o'quv va ko'nikmalarni egallashga yordam beribgina qolmay nazariya va amaliyotning qarab chiqilayotgan masalalar orasida matematik munosabatlarni o'rgatishga, matematika o'qitish samaradorligini oshirishga o'qituvchiga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir.

1. Ilmiy-tadqiqot va kuzatish metodlari haqida ma'lumot. Pedagogik tarbiyalashga oid ish tajribalarni o'rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonini chuqur tadqiq qilmay turib pedagogikani rivojlantirib bo'lmaydi. Hozirgi ta'lim-tarbiya pedagogikani ilmiy bilishning umumiy metodi bilan qurollantiradi, ammo boshqa har qanday fan kabi pedagogika fanining ham xususiy tadqiqot metodlari mavjud.

Ilmiy tadqiqot metodlari - bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir. Kuzatish, tajriba, maktab hujjatlari bilan tanishish, o'rganish, suhbat va so'rovnomalar o'tkazish, ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari jumlasiga kiradi. So'nggi vaqtlarda matematik va kibernetik metodlardan, shuningdek, modellashtirish metodlaridan foydalanish qayd qilinmoqda.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasida butun pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlarning o'zidan foydalaniladi.

Kuzatish metodi - odatdagi sharoitda kuzatish natijalarini tegishli qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish metodidan o'quv-tarbiya ishining u yoki bu sohasidagi ishning qanday borayotganini o'rganish uchun foydalaniladi. Bu





metod o'qituvchi vao'quvchilarning faoliyatlari haqida majbur qilinmagan tabiiy sharoitda faktik material to'plash imkonini beradi.

Kuzatish vaqtida tadqiqotchi o'quv jarayonining odatdagi borishiga aralashmaydi. Kuzatish aniq maqsadni ko'zlangan reja asosida uzoq yoki yaqin vaqt oralig'ida davom etadi. Kuzatishning borishi, faktlar, sodir bo'layotgan voqealar, jihozlar kuzatish kundaligiga qayd qilinib boriladi.

Kuzatish tutash yoki tanlama bo'lishi mumkin. Tutash kuzatishda kengroq olingan hodisa (masalan, matematika darslarida kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish faoliyatlari), tanlama kuzatashda kichik-kichik hajmdagi hodisalar (masalan, matematika darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari) kuzatiladi. Qaror yozish yoki kundalik yuritish kuzatishni qayd qilishning eng soddasi metodidir. Ammo kuzatishlarni qayd qilishning eng ishonchli metodi texnik vositalar, video, foto va kinosyomkadan, teleekrandan foydalanishdir.

2. Tajriba va maktab hujjatlarini o'rganish. Tajriba - bu ham kuzatish bo'lib, maxsus tashkil qilingan, tadqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va tizimli ravishda o'zgartirib turiladigan sharoitda o'tkaziladi. Pedagogik Tajriba o'qitishning va tarbiyalashning u yoki bu usulining, ko'rsatma - qo'llanmalarining samaradorligini tadqiq qilishda qo'llaniladi. Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi tadqiq qilinishi kerak bo'lgan masalalarni aniq ifodalab olishi, bunday masalalarni hal qilinishi maktab amaliyotida va pedagogika fani uchun ahamiyatga ega bo'lishi kerak.


O'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko'pchiligida o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari, bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarga erishiladi, o'quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi, deb tavsiflanadi.

O'qitish metodlari o'zlashtirish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi 3 ta asosiy funksiyani bajaradi.

O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish metodlarini bir nechta gruppalariga bo'lib klassifikatsiyalash mumkin.

I. O'quvchilar bilim oladigan manbalar bo'yicha, og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metod (tushuntirish suhbat, hikoya, kitob bilan ishlash va h.k.); ko'rsatmali metodlar (atrof-muhitdagi predmet va hodisalarni kuzatish);

II. O'quvchi fikrining yo'nalishi bo'yicha; induksiya, deduksiya va analogiya; metodlar.





III. Pedagogik ta'sir o'quvchilarning o'qishda mustaqillik darajasi bo'yicha o'qituvchi boshchiligida bajariladigan o'quv ishi metodi; o'quvchilarning mustaqil ishlari metodi.


IV. O'quvchilarning mustaqil aktivliklari darajasi bo'yicha; izohli -illyustrativ metod; reproduktiv metod; bilimlarni problemali bayon qilish metodi; qisman izlanish va tadqiq qilish metodi;

1.Og'zaki metodlar. Bunda qisqa muddat ichida hajmi bo'yicha eng ko'p axborot berish, o'quvchilar oldiga muamolar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi.

a) T u s h u n t i r i s h . Bilimlarni tuShuntirish metodining mohiyati Shundan iboratki bunda o'qituvchi materialni bayon qiladi, o'quvchilar esa uni tayyor holda qabul qilib oladilar. Material bayoni esa puxta, aniq, tuShunarli, qisqa bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunovich, S. E. Teaching pragmatic competence in EFL context: the case of Uzbek EFL teachers. ЯЗЫК И КУЛЬТУРА, 55.
2. Садиков, Э. Т. (2023). ПРАГМАТИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЯ. Scientific progress, 4(4), 157-160.
3. Tursunovich, S. E. (2021, November). THE ENGLISH LANGUAGE: STANDARD OR NON-STANDARD?. In Archive of Conferences (pp. 103-104).
4. Tursunovich, S. E. (2023). INTERACTIONS OF PHILOSOPHY, PRAGMATICS AND PEDAGOGY. International Journal of Pedagogics, 3(04), 62-65.
5. Sadikov, E. (2022). Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English languages. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25).
6. Sadikov, E. T. (2021). TEACHING PRAGMATIC SPEECH ACTS AND COMMUNICATIVE SKILLS IN ACCORDANCE WITH MULTIMEDIA MATERIALS. Экономика и социум, (12-1 (91)), 547-549.
7. Sadikov, E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).
8. Sadikov, E. (2023). INKORNI IFODALOVCHI NUTQ AKTLARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING AJRALMAS QISMI SIFATIDA O 'QITISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 29(29).
9. Husaynova, M., & Rustamova, D. (2023). ZULFIYA ISROILOVA SHE'RIYATIDA UCHRAYDIGAN LISONIY HODISALAR. IQRO, 2(1), 161-162.
10. Rustamov, I., Xatamova, Z., Xamdamova, O., & Husaynova, T. M. (2023). EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN IMPROVING





THE QUALITY OF EDUCATION. SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS, 1(9).

11. O'rinboev, A. (2023). OPTIMIZING PERFORMANCE IN A DENTAL QUEUE WEB APP. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(9), 5-9.

12. Abdurakhimovich, U. A. (2023). The Vital Role of Web Programming in the Digital Age. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(6), 42-51.

13. O'rinboev, A. (2023). ANALYZING THE EFFICIENCY AND PERFORMANCE OPTIMIZATION TECHNIQUES OF REACT. JS IN MODERN WEB DEVELOPMENT. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(24), 54-57.

14. O'rinboev, A. (2023). STRATEGIC PROJECT MANAGEMENT FOR SCIENTIFIC WEB APPLICATIONS: LESSONS LEARNED AND FUTURE TRENDS. Current approaches and new research in modern sciences, 2(9), 9-13.

